



O'ZBEK VA TURK ALLALARINING UMUMIY XUSUSIYATLARI

Ernazarova Gulbahor Isokovna,

Sharov Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti assistenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD
bahoriso@inbox.ru
ORCID: 0000-0002-9705-1255

Jahongirova Sevara Nag'matillo qizi,

Sharov Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati instituti 4-kurs talabasi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.20716979>

Annotatsiya. Ushbu maqolada xalq og'zaki adabiyotining qadimgi janrlaridan biri bo'lgan alla janrining poetik xususiyatlari o'zbek va turk allalariga misollar sifatida keltirilgan holda tahlil qilinadi. Ikkala xalq allasining ham o'ziga xos va umumiy jihatlari muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: alla, g'oyaviy niyat, shakl, markaziy obraz, to'rtlik.

Аннотация. В данной статье анализируются поэтические особенности жанра колыбельной песни, являющегося одним из древнейших жанров устного народного творчества, на примере узбекских и турецких колыбельных песен. Рассматриваются как общие, так и специфические особенности колыбельных двух народов.

Ключевые слова: колыбельная песня, идейный замысел, форма, центральный образ, четверостишие.

Abstract. This article analyzes the poetic characteristics of the alla genre, one of the ancient genres of folk oral literature, using Uzbek and Turkish alla as examples. Specific and common aspects of both folk allas are also discussed.

Keywords: alla, ideological concept, form, central image, quatrain.

Kirish. O'zbek va turk xalqlari o'rtasidagi etnik, madaniy va lisoniy mushtaraklik ularning og'zaki ijod namunalarida, xususan, bolalar adabiyotida yorqin namoyon bo'ladi. Bugungi kunda globallashuv va madaniy integratsiya jarayonlari jadallashgan bir davrda milliy merosni asrash, yosh avlod tarbiyasida xalq og'zaki ijodining o'rnini belgilash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

O'zbek va turk xalqlari qadimiy tarix, til, madaniyat hamda an'analarning mushtarak jihatlari bilan bir-biriga yaqin bo'lgan qardosh xalqlardir. Bu yaqinlik ularning xalq og'zaki ijodida, xususan, allalarida ham yaqqol namoyon bo'ladi. Har ikkala xalq allalarida ona mehri, farzandga bo'lgan muhabbat, kelajak haqidagi ezgu tilaklar va milliy qadriyatlar poetik shaklda ifodalanadi. Shu bilan birga, allalarda har bir xalqning o'ziga xos milliy ruhiyati, badiiy tafakkuri va poetik uslubi ham aks etadi.

Adabiyot tahlili va metodlar. Alla janri insoniyat yaratilganidan to bugunga qadar hayotimizda mavjud bo'lgan va bundan keyingi avlodlarga ham meros bo'lib



qoladigan ahamiyatli janr hisoblanadi. Folklorshunos Oxunjon Safarov “O‘zbek xalq og‘zaki ijodi” darsligida alla janrining paydo bo‘lishiga to‘xtalib quyidagicha ma’lumotlarni keltiradi: “Allaning qachon paydo bo‘lgani o‘zbek folklorshunosligida hozircha aniqlangani yo‘q, ammo uning qanday ma’naviy ehtiyoj tufayli yuzaga kelganini A.Vetuxov shunday izohlaydi: “Ona o‘zining tug‘ma sezgirligi bilan bola uchun faqat qo‘shiq kerakligini..., tinchlantiruvchi, yorqin va monoton qo‘shiq kerakligini angladi. Shu zaylda alla shakli yuzaga keldi. O‘sha onalik sezgilari allalarning qanday mazmunga ega bo‘lishini aytib turdilar: unda onalik qalbida qanday ko‘tarinkilik bo‘lsa, hammasi bor” (Ветухов А. Народное колобние песни. Песни. М., 1982, с. 132).

Folklorshunos olimlar ta’kidlashganidek, alla janri xalqning tarbiyaviy manifestidir. Sababi unda nafaqat bola uyquga tayyorlanadi, balki onaning ovozi orqali xalqning qadimiy hikmatlari, pand-nasihatlari, duolari va orzulari ham singdiriladi. Turkiy xalqlar allalarida ona markaziy obraz sifatida namoyon bo‘ladi. Ona nafaqat qo‘shiq kuylovchi shaxs, balki xalq ma’naviyatining timsolidir. Ona obrazi orqali allalarda mehr, fidoyilik, bag‘rikenglik, sabr va muhabbat singari fazilatlar badiiy tarzda ifodalanadi. Turkiy xalqlar allalarining asosiy vazifasi – bola ongiga axloqiy qadriyatlarni singdirish. Alla orqali ona farzandiga xalqning insoniy fazilatlarini, mehr-muhabbatini, e’tiqodini, mehnatsevarlik va sabr-toqatini tilaydi.

Muhokama. O‘zbek folklorshunosligida allalarning kompozitsion butunligini so‘z, ohang va harakat birligida, shu uzvlarning o‘zaro mantiqiy aloqadorligida ko‘rish hali ilmiy maromiga yetganicha yo‘q. O‘zbek allalarini o‘rganishda birmuncha ishlar qilgan, ularni marosim qo‘shig‘i sifatida xarakterlagan taniqli folklorshunos M.Alaviya: “Alla, asosan, to‘rtlikdan tashkil topgan bo‘lsa ham, ba’zan allalovchi to‘lqinlanib ketsa, davom ettirib, boshqa misralarni ham qo‘shib yuboradi va bir-biriga yaqin bir qancha to‘rtliklarni aytib, bu bilan o‘zining tilak, armonini izhor etadi” [1. 132] – deb yozadi. Chindan ham to‘rtlik shaklidagi band - o‘zbek allalarining yetakchi struktural uzvi. Ammo o‘zbek onalari repertuarida uchlik, beshlik, oltilik, yettilik va sakkizlik tarzida bir butun tugallangan allalar ham, shuningdek, shu xildagi bir necha bandlardan tarkib topgan allalar ham talaygina. Bunday xilma-xillik onaning allani kuylayotgan paytidagi kayfiyatining natijasi bo‘lib, unda ifodalanishi kutilgan g‘oyaviy niyatning salmog‘iga, yo‘nalishiga bog‘liq.

Alla-yo Alla

Oppoq qizim, alla,

Qaymoq qizim, alla,

Go‘zal qizim, alla,

Asal qizim, alla,



Alla-yo alla...

Bu alla erkalash xarakteriga ega. Uning tuzilishi ikkilik shaklida. Barcha qofiyadosh soʻzlar sifatlash (epitet) vazifasini bajargan va anafora koʻrinishida satr boshida kelgan. “Qizim, alla” murojaati esa mayin ohangni taʼminlovchi murakkab radif boʻlib, butun alla davomida ohang va kuyning yaxlitligini, erkalovchi ohangda kuylanishini taʼminlagan. Sifatlash-qofiyadosh soʻzlarda esa onaning qizchasiga boʻlgan chuqur mehrni xilma-xil qiyoslash va oʻxshatishlarda koʻrinib turadi. Shu qiyoslash va oʻxshatishlarni yuzaga keltirgan narsa va hodisalarning aksariyati qaysidir xususiyati bilan uxlatilayotgan qizaloq xususiyatlarini yoki qiyofasini ochishga qaratilgan.

Qardosh turk adabiyotida ham alla janri alohida ahamiyat kasb etadi. Turk xalq ogʻzaki ijodida alla “ninni” termini bilan yuritiladi. Xususan, turk allasi(ninni) haqida Doç. Dr. Mustafa SEVER oʻzining “Türk halk şiiiri” kitobida shunday yozadi: “Annelerin veya çocuk yakınlarının çocuğu kucakta, beşikte, salıncakta, vb. yerlerde uyuturken veya severken kendilerine özgü bir ezgiyle söyledikleri türkülerdir. Bu türkülerde anne, çocuğuna ilişkin dileklerini, isteklerini, günlük sorunlarını, sevinçlerini de getirebilirler. Başında ve sonunda birtakım kalıp sözler, seslenmeler bulunan ninniler, çoklukla dört dizeli bir yapıdır. Ninni söyleyen anne veya çocuğun yakını kadın, gelenekten aldığı hazır kalıpları kullanır; bunu yaparken kendine ait söz ve ezgiyi de ninnisine katabilir” (Tarjima: Onalar yoki bolaga yaqin kishilar bolani quchoqda, beshikda, belanchakda va hokazo joylarda uxlatayotganda yoki erkalayotganda oʻziga xos ohang bilan aytadigan qoʻshiq'larga ninnilar (allalar) deyiladi. Bu allalarda ona bolasi haqida orzu-istaklarini, tilaklarini, kundalik muammolarni va quvonchlarni ham ifoda etishi mumkin. Boshlanishida va oxirida maʼlum qolip iboralar hamda murojaatlar boʻladigan allalar koʻpincha toʻrt misrali tuzilishga ega boʻladi) [3.18-2].

Erkalash maʼnosidagi “kuzu”(qoʻzi) soʻzi ham turk allarida juda koʻp qoʻllaniladi. Bu soʻz “qoʻzim”, “qoʻzichogʻim” shaklida oʻzbek allarida ham koʻplab uchraydi.

Uzak yoldan gelirim
Kuzu gibi melerim
Eğer sen yoruldunsa
Bırak ben de belerim
Neen neen neen nen
Benim kuzum uyusun neen neen

Tajimasi:

Uzoq yoʻldan kelarman,
Qoʻzichogʻ kabi maʼrayman.
Agar sen charchagan boʻlsang,



Qo‘y, men ham beshik tebratay.

Alla, alla, alla...

Mening qo‘zichog‘im uxlasin, alla...

Bu alla namunasida ikkala xaqlda ham uchraydigan hayvon timsoli mavjud. Yuqorida ta‘kidlaganimizdek, “qo‘zi” so‘zi orqali erkalash ma‘nosi ifodalanadi. Ham ramziy ma‘noda, ham reallikdagi ma‘nosini ifodalagan jumlar berilgan. Birinchi uchraydigan “kuzu” orqali ona o‘zini unga o‘xshatyapti. Keyingi misralarda ona farzandini “kuzum” deb erkalab murojaat qilyapti.

Natijalar. Yuqoridagi mulohazadan ma‘lumki, har ikkala qardosh xalq og‘zaki ijodida alla janri bir xil vazifani bajaradi, bir xil ma‘no ifodalaydi. Ya‘ni, u avvalo, bolani tinchlantirish, uxlatish va ruhiy tarafdin taskin berish vazifasini bajaradi. Shu bilan birga, alla orqali ona o‘z mehr-muhabbatini, orzu-umidlarini, farzandiga bo‘lgan ezgu tilaklarini ifoda etadi. Bundan tashqari, aqliy rivojlanishiga va o‘rganish qobiliyatiga ham o‘zining sezilarli ta‘sirini ko‘rsatadi. Har ikkala qardosh xalq og‘zaki ijodida bu janr nafaqat tarbiyaviy ahamiyatga ega, balki milliy qadriyatlar, urf-odatlar va hayotiy qarashlarini yosh avlod ongiga singdirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa. Umuman olganda, turkiy xalqlarda alla qadimdan shakllangan pedagogik fenomen bo‘lib, u bolani parvarish qilish, tarbiyalash va ijtimoiy hayotga tayyorlashning tabiiy va samarali vositasi hisoblanadi. O‘zbek va turk allalari o‘rtasidagi umumiyliklar esa turkiy madaniy makonning mushtarak ildizlari, umumiy dunyoqarashi va qadriyatlar tizimini yaqqol namoyon etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Alaviya M. O‘zbek xalq marosim qo‘shiqlari. – Toshkent, 1974.
2. Baytullah KARAGÖZ. , Adem İŞCAN. Kültürel bellek aktarımı temelinde ninnilerin rolü: “anneler ninnileri biliyor mu?” Erzincan Üniversitesi Eğitim Fakültesi Dergisi. – Cilt-Sayı: 18-2 Yıl: 2016.
3. Doç. Dr.Mustafa SEVER. Türk Halk Şiiri. Ankara Üniversitesi Yayınevi. 2013, s 111. Amil Çelebioğlu. Türk Ninnileri Hazinesi. – İstanbul, 1982.
4. Сафаров О. Алла-ё, алла. – Тошкент, 2000.
5. Сафаров О. Ўзбек халқ оғзаки ижоди. – Тошкент: Муסיқа, 2010.